

O‘RTA MAXSUS VA PROFESSIONAL TA‘LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O‘TKAZISH UCHUN TRAKTORLAR VA QISHLOQ XO‘JALIGI AGREGATLARIGA TEXNIK XIZMAT KO‘RSATISH VA TA‘MIRLASH FANIDAN MALAKA TEST SINOVI TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI

I. Maqsad

Mazkur test varianti tafsilotining maqsadi kasbiy ta‘lim fanlarini bilish darajasini baholashning malaka toifalarini berish test tizimi doirasida Traktorlar va qishloq xo‘jaligi agregatlariga texnik xizmat ko‘rsatish va ta‘mirlash talabgorlarining bilim darajasini aniqlash va sertifikatlash uchun qo‘llaniladigan test varianti formati (topshiriqlar soni, turi, vaqt me‘yori), fan mazmuni tarkibi, kognitiv ko‘nikma darajalari, baholash mezonlari va talabgorlarning tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan talablarni belgilashdan iborat.

II. Me‘yoriy asoslar

1.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentyabrdagi **“Maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta‘lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o‘tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”**gi 572-sonli qarori qarori.

III. Baholash qamrovi: mazmun sohalari

Traktorlar va qishloq xo‘jaligi agregatlariga texnik xizmat ko‘rsatish va ta‘mirlash

1. Traktor va avtomobillar tuzilishi;
2. Qishloq xo‘jalik mashinalari ;
3. Qishloq xo‘jaligi mashinalarini ishlatish va ularga texnik xizmat ko‘rsatish;
4. Qishloq xo‘jaligida mexanizatsiyalashgan ishlar texnologiyasi.

IV. Baholanadigan mazmun sohalar va konstuktlar

T/r	Mazmun sohalar	Konstruktlar	Ulushi (%)	Testlar soni
1	Traktor va avtomobillar tuzilishi	Traktor va avtomobillar xaqida umumiy ma'lumotlar Dvigatellar umumiy tuzilishi va ishlash uslubi Krivoship shatun mexanizmi Gaz taqsimlash mexanizmi Dvigatellarni ta'minlash tizimi Dvigatellarni moylash tizimi Dvigatellarni sovutish tizimi Dizellarni yurgazib yuborish tizimi Traktor va avtomobillarning elektr jihozlari to'g'risidagi haqida bilish.	62.5%	21 ta
2	Qishloq xo'jalik mashinalari	Tuproqqa ishlov berish mashinalari Tuproqqa sayoz ishlov beradigan mashinalar Ekish mashinalari Qator oralariga ishlov beradigan mashinalar O'g'itlash mashinalari O'simliklarni himoya qilish mashinalari Don kombaynlari Paxta terish mashinlari va shu kabi jixozlarning tuzilishi, ekspluatatsiyasi to'g'risidagi bilish.	25 %	10 ta
3	Qishloq xo'jaligi mashinalarini ishlatish va ularga texnik xizmat ko'rsatish	Qishloq xo'jaligi mashinalarini ishlatish va ularga texnik xizmat ko'rsatish haqida bilish.	17.5%	7ta
4	Qishloq xo'jaligida mexanizatsiyalas hgan ishlar texnologiyasi	Agregatning ish unumdorligi. Agregatning xarakatlanish usullari. Qishloq xo'jaligida mexanizatsiyalashgan ishlar texnologiyasi haqida bilimlarga ega bo'lish.	5 %	2 ta

V. Baholanadigan kognitiv ko'nikmalar va taqsimoti

T/r	Kognitiv daraja	Izohi	Ulushi (%)
1.	Bilish	Fanga doir nazariy ma'lumotni, atama va qoidalarni eslab qolish, tushunish, nazariy jihatdan tahlil qila olish	20
2.	Qo'llash	O'zlashtirgan nazariy bilim va tushunchalarni yangi kontekstlarda (ta'limiy, muammoli vaziyat va pedagogik-psixologik holatlarda) ishlata olish	60
3.	Mulohaza qilish	Muayyan faktlar, dalillar va normalarni mantiqiy bog'liq tarzda tahlil qilib, jarayonlarning ketma-ketligini farqlab, vaziyatni analiz qilib, xulosalar chiqara olish	20

VI. Test turlari va taqsimoti

T/r	Test turi	Izohi
1.	Y1	To'rtta variantdan bittasi to'g'ri bo'lgan muqobil javobli yopiq test
2.	Y2	Tartiblangan bir nechta javoblardan to'g'rilarini topishni talab qiladigan muqobil javobli yopiq test
3.	Y3	Moslashtirishni talab qiladigan yopiq test
4.	Y4	Gap yoki jarayonlarni to'g'ri ketma-ketlikda joylashtirish talab etiladigan yopiq test

VII. Baholash mezonlari va ajratilgan vaqt

Test topshiriqlari umumiy 80 ball bilan baholanadi.

Har bir to'g'ri javob 2 ball, noto'g'ri javob esa 0 ball bilan baholanadi.

VIII. Imtihon tartibi

Taqiqlangan vositalar: imtihon vaqtida mobil telefon, aqlli soat, planshet yoki elektron eslatmalardan foydalanish qat'iyan man etiladi.

Axloq va intizom: nusxa ko'chirish, yordam so'rash yoki yordam berish, imtihon davomida gaplashish, ruxsatsiz chiqish kabi holatlar taqiqlanadi.

Nazoratchi qoidabuzarlikni aniqlaganda, uni rasmiylashtirib, tinglovchini testdan chetlashtiradi va natijasi bekor qilinadi.

IX. Inklyuziya va moslashtirish

Alohida ta'limga ehtiyoji bor talabgorlar uchun qo'shimcha (umumiy vaqtning 15 %i miqdorida) vaqt qo'shib beriladi. Shuningdek, topshiriqlarning berilish shakli va turi ham ularga mos va qulay shaklda taqdim etiladi.

Ko'rish sohasida imkoniyati cheklangan talabgorlar savollarni o'qib berishi uchun maxsus texnik yordamchi bilan kelishiga ruxsat etiladi, faqat savolning to'g'ri javobini aytishi mumkin emas. \

X. Tavsiya etilgan adabiyotlar

1. K.Igamberdiyev,.qishloq xo‘jaligi mashinalarini ishlatish va ularga texnik xizmat ko‘rsatish. Toshkent-2022
2. «Traktor va avtomobillar» A.I.Kamilov, Q.A.Sharipov, N.T.Umarov, Z.Y.Yusupov . Cho‘lpon nomidagi NMIU, 2017
3. A.K.Igamberdiyev, S.Aliqulov.qishloq xo‘jaligi mashinalarini ishlatish va ularga texnik xizmat ko‘rsatish. Toshkent-2022.
4. M.Shoumarova. Qishloq xo‘jaligida mexanizatsiyalashgan ishlar texnologiyasi. Toshkent -2015